

# BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLARNI TAYYORLASH

## YO'NALISHLARINI LOYIHALASH

**Nazirova Guzal Malikovna**

Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning butun kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lif barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lifni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ldi. Hujjat malakali pedagogik kadrlarining yetishmovchiligi, davlat MTTlarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi, hamda davlat MTTlarining o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi.

MTTda tashkil etiladigan mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilarining faolligini ta'minlash, ularni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish hamda erkin va mustaqil muloqotga kirishishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishning ahamiyati ta'lif-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Pedagogik amaliyotning ko'rsatishicha, MTT tarbiyalanuvchilarida mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalarini va boy ma'naviy dunyoqarashning shakllanishi nafaqat maxsus tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda, balki ular yashayotgan va ta'lif olayotgan muhit, ta'lif muassasasi jamoasi a'zolarining o'zaro munosabatlari va shaxslararo munosabatlar jarayonlarida vujudga kelayotgan ta'lifiy muhitda amalga oshadi. Shuningdek, MTT rahbar-tarbiyachilarini va tarbiyachilarining shaxsiy sifatlari, xatti-harakati, dunyoqarashi, tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalari tarbiyalanuvchilar shaxsining rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

MTTda tashkil etiladigan asosiy (ta'lif-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va pedagogik tizimning umumiyligi modelini o'zgartirishda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarining imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari va MTT ichki imkoniyatlari asoslanish kerak. Chunki vaziyatlarga ko'ra takomillashtirilgan va yangilangan model davlat talablari darajasida tarbiyalanuvchilarining o'zgaruvchan ta'lif-tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi hamda tarbiyachilarining kasbiy kompetentlilikini rivojlanishga xizmat qilishi muhim.

Fikrimizcha, MTTda tashkil etiladigan asosiy (ta'lif-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va pedagogik tizimning umumiyligi modelini takomillashtirishda pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi omillarga asoslanish kerak:

- MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar tarbiyalanuvchilarining faolligiga, tarbiyachilarining vaziyatlarga ko'ra tarbiyalanuvchilar faolligini ta'minlash qobiliyatlariga bog'liqligi;

- MTTda tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonlarining tizimli obyekt sifatida izchil rivojlanib borishi barcha asosiy (ta'lif-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-

sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar hamda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlari integratsiyasini ta’minlashga bog‘liqligi;

– asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlardagi muvaffaqiyatlar tarbiyaviy munosabatlar va shaxslararo munosabatlar jarayonlaridagi o‘zaro ta’sirning samaradorligiga bog‘liqligi;

– MTTda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirishdagi tavakkalchilik (ehtiyojlar va imkoniyatlarni, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatları va boshlang‘ich tushunchalarini inobatga olmaslik) bilan pedagogik jarayonlar samardorligining nomutanosibligi;

– MTTda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda tarbiyalanuvchilarga kuchli majburiy va keng qamrovli ta’sir ko‘rsatishning samarasiz ekanligi;

– MTTda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni loyihalashtirish va umumiyligi modelini shakllantirishda ularning tizimga xos xususiyatlarini inobatga olish, ya’ni asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar samaradorliklari ham o‘zaro ta’sir ko‘rsatish xususiyatlariga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Demak, MTTda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni loyihalashtirish va umumiyligi modelini shakllantirishda ularning tizimga xos xususiyatlarini inobatga olish, ya’ni asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar samaradorliklari ham o‘zaro ta’sir ko‘rsatish xususiyatlariga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ya’ni MTTda tashkil etiladigan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik tizimni tashkil etuvchi asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlardan biri hisoblangan tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari ham tizimli xususiyatlarga ega bo‘lib, uning samaradorligi asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) mashg‘ulotlar natijaviyligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi yoki o‘zini-o‘zi tarbiya jarayonlari sifatida xizmat qilishini inobatga olish zarur.

Shunday ekan, MTTda tashkil etiladigan barcha shakllardagi asosiy (ta’lim-tarbiyaviy) va yordamchi (motivlar shakllantiruvchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlardan iborat bo‘lgan pedagogik jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlashda ularning tizimga xos xususiyatlarini o‘rganish hamda samaradorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun – T.: 2019. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida”gi PQ-4312-sodn Qarori / Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-sod; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-sod.
3. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAA AJ&citation\\_for\\_view=ozrGWXoAAAAJ: FxGoFyzp5QC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAA AJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ: FxGoFyzp5QC)

4. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
5. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).
6. Xalkuziyeva, Dilnoza. "BOLAJAK TARBIYACHILARNI OQITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH." *Наука и технология в современном мире* 2.14 (2023): 33-35.
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "OTMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI BOYICHA MASHGULOTLARNI TASHKIL ETISH." *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference*. 2023.
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1 (2023).
9. Gapparovna, Ibragimova Shaxnoza. "ESTABLISHMENT OF PSYCHOLOGICAL SERVICE IN EDUCATION." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.06* (2022): 34-38.
10. Xalkuziyeva, Dilnoza. "МТТ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗЛАРИДА МИЛЛИЙ ФУРУР ҲИССИНИ ШАКЛАНТИРИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНЛАР." *Наука и технология в современном мире* 2.14 (2023): 30-32.